VIII – X ASR OXIRLARI XORAZM TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI

Ro’zimov Asror Shuxrat o’g’li
Urganch davlat universiteti tarix fakulteti Tarix yo’nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7722455

Annotation: Ushbu maqolada Xorazmning VIII-X asrlarga oid tarixiy manbalarini va xorazmlik allomalar haqida ma’lumotga ega bo’lish mumkin. Xorazmdagi iqtisodiy va ijtimoiy hayoti haqida ma’lumotlar berilgan.

Key words: Xorazm, “Avesto”, Bog’dod, Damashq, “Islom Renesseansi”, “Bayt al-hikma”, Kat, al- Ma’mun, al-Mu’tasim, al-Vosiq.

Xorazm qadimdan til, madaniyat va adabiyot ravnaq topgan hududlardan biri bo’lgan. Xorazm diyorida yashovchi aholining o’z yozuvi va tili bo’lganligi qadimgi manbaalarda aytib o’tilgan. Bu yozuv miloddan avvalgi VII asrda Finikiya, Lidiya va Eronda foygalanilgan oromiy yozuvi asosida shakllangan. Xorazmda yozuv miloddan avvalgi IV-II asrlarda yaratilgan va shu tariqa yozma adabiyot ham paydo bo’lgan.

O’rta Osiyo xalqlarning eng qadimgi yozma manbaalaridan bo’lgan

“Avesto” ham Xorazm hududida yaratilgan. Bu kitob o’sha davrda Xorazm va unga qo’shni bo’lgan mamalakatlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixi haqida ham qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Arablar istilosi davrida boshqa davlatlarda bo’lgani kabi ko’p asrlar davomida yaratilgan Xorazmdagi qimmatli manbaalarning barchasi yo’q qilinadi. Xorazmga Islom dini va arab yozuvi kirib kelishi natijasida, VIII-XI asrlarda ilm-fan taraqqiy etadi. Arab tili davlat va ilm-fan tili darajasiga ko’tarildi. Islom dinini, Qur’oni Karimni va arab tilini puxta egallaganlarning jamiyatdagi o’rni va nufuzi ortib bordi. Shu davrda yashab ijod qilgan ko’plab allomlar o’z asarlarini arab tilida yozib qoldiradilar. Mukammal bilim olishni o’z oldilariga maksad qilgan ko’plab tolibi ilmlar xalifalikning markazidagi shaharlarga borishgan. Bog’dod, Damashq, Qohira, Kufa, Bursa kabi katta shaharlarda Movarounnahr va Xorazmdan borib fan va madaniyat taraqqiyotiga o’z xissalarini qo’shgan ajdodlarimiz yetishib chiqqan. Jumladan, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy kabi buyuk allomalar Xorazm ilm-fanini dunyoga namoyon qiladilar. Shuni takidlash kerakki, VIII-X asrlarda “Islom Renesseansi” vujudga kelishiga mrkazlashgan davlatning paydo bo’lganligi ham katta ta’sir ko’rsatgan.

IX asrda nomi butun jahonga mashhur bo‘lgan, zamonaviy “Algebra” fanining asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al - Xorazmiy yetishib chiqdi. Muhammad Xorazmiyning o‘lmas asarlari Sharq dagina emas, balki Yevropada ham o’z o’rni va ahamiyatioga ega bo’lgan. Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida bu buyuk

allomaning ilmiy asarlari va kashfiyotlarini uzoq vaqt davomida o‘rganib, tahil qilishgan. Xorazmiy boshlang’ich bilimni o’z ona vatanida oladi, keyinchalik ilm olishga bo’lgan istiyoqi uni Bog’dod, Damashq, Marv kabi shu davrning ilm-fan markazlariga yetaklaydi. Muso al—Xorazmiy 805-819-yilgacha Marvda kutubxona qoshida tashkil topgan tarjimonlik guruhiga va kutubxona tarkibiga qaror topgan «Madrasai Oliya» ning ishlariga rahbarlik qilgan 819-yilda Ma’mun Bag‘dodga kelganidan so‘ng Xorazmiy «Bayt ul — hikma»ga boshliq qilib tayinlanadi. Bag‘dod o‘sha davrda jahonning eng yuksak rivojlangan,fan, madaniyat taraqqiy etgan shahar edi.

Muhammad Xorazmiy Bag‘dod shahrida xalifalar: al-Ma’mun saroylarida yashab ijod etdi. Horun ar-Rashidning o’g’li al —Ma’mun (813-833) davrida o‘z davrning fanlar akademiyasi hisoblangan «Bayt ul—Hikma» («Donishmandlar uyi») tashkil qilib, unga barcha mamlakatlardan mashhur olimlar, tarjimonlar jalb qilingan edi. Xalifa al-Ma’mun davrida Bag‘dod ilmiy, tarjima ishlarining markazi bo‘lib qoldi. Qisqa vaqt ichida Aristotel, Yevklid, Arximed, Ptolomey kabi olimlarning nodir asarlari arab tiliga tarjima qilindi va Sharq xalqlari orasida keng tarqaldi.

Allomanint o‘zi yozgan “Astronomik jadvallar” bizgacha yetib kelmagsn. Lekin bu asarni ispaniyalik munajjim Abu al-Qosim al-Majridiy 1007-yili qayta ishlab chiqqan. Ammo u ham yo‘qolgan. Faqat ana shu qayta ishlangan nusxaning Batalik Adelyard tomonidan 1126-yili lotinchaga qilingan tarjimasi bizgacha yetib kelgan. Al-Xorazmiyning «Astronomik jadval»lar risolasi Nyuton va Garshel asarlari paydo bo‘lgunga qadar Yevropada asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tagan «Astronomik jadval»lar oxirgi marta 1941-yili nemis tilida Kopengagenda nashr etilgan.

Qadimgi Xorazmning buyuk siymolaridan biri jahonga dong taratgan olim Abu Rayhon al-Beruniydir (973-1048-yillar). Beruniy o‘z ijodi bilan Xorazm fanini yuksak cho‘qqiga olib chiqdi. Uning siymosida o‘rta asrlar Sharqning astronomi, geografi, ma’danshunosi, etnografii, tarixchisi va shoiri mujassamlashgan. Beruniy fanning turli sohalariga oid juda ko‘p yirik asarlar dunyoga keldi. Bu asarlardan uning fan sohalaridan xabardor ekanligini anglash mumkin.

995-yilda Beruniyning ona shahri Kot (hozirgi Beruniy shahri) Gurganj amiri Ma’mun I qo‘shinlari istilo etadi. Xorazmda hokimlik qilib turgan afrig‘iylar sulolasi ag‘dariladi. Bunday siyosiy voqealar Beruniyni vatanni tark etib, Ray shahriga (hozirgi Tehron yaqinida) ketishga majbur etadi. Bu yerda u saroy munajjimi Abu Mahmud ibn al—Xidr Xo‘jandiy bilan tanishadi. Beruniyning so‘zlariga qaraganda Xo‘jandiy samo jismlarining harakatini o‘rganishda ishlatiladigan asboblar faxriy sekstant tayyorlash sohasida o‘z davrining noyob kishisi bo‘lgan.

1004-yilda Ma’mun II ning taklifiga binoan Beruniy vataniga Xorazmning poytaxti Gurganj (hozirgi ko‘hna Urganch)ga qaytib keladi. Bu yerda buyuk olimlar

yigilgan edi. Beruniy Ma’mun II ning saroyida Xorazm olimlarini uyushtirib, «Ma’mun akademiyasi»ni barpo etadi.

Abu Rayhon Beruniy Xorazmshoh saroyida katta obro‘ga ega bo‘lib, Ma’munning yaqin maslahatchisi bo‘lib qolgan edi. Biroq «Ma’mun akademiyasi» ning umri qisqa bo‘ldi. 1017-yilda Xorazm yirik istilochisi, ulkan, lekin qisqa davr yashagan davlat asoschisi Mahmud G‘aznaviy qo‘l ostiga o‘tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayahon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". "Fan". Toshkent, 1968-yil

2. S.Tolstov. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. -Toshkent. 1964.

3. O.Masharipov "Xorazmnoma". "Xorazm". Urganch,2007-yil